

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ESHMATOVA GAVXAR QUTPITDINOVNA

**KOMBINATSIYALASHGAN MASHINALAR TARKIBIDA
QO‘LLANILADIGAN TANDEM G‘ALTAKMOLANING TURI VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Eshmatova Gavxar Qutpitdinovna

Kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo‘llaniladigan tandem
g‘altakmolaning turi va parametrlarini asoslash..... 3

Эшматова Гавхар Кутпитдиновна

Обоснование типа и параметров применяемого в составе
комбинированных машин тандемного катка..... 20

Eshmatova Gavkhar Qutpitdinovna

Justification of the type and parameters of the tandem roller used as part of
combined machines..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 42

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ESHMATOVA GAVXAR QUTPITDINOVNA

**KOMBINATSIYALASHGAN MASHINALAR TARKIBIDA
QO‘LLANILADIGAN TANDEM G‘ALTAKMOLANING TURI VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/T2132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida www.qxmiti.uz va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashyev Ma'rufjon Muxammadjonovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, k.i.x.

Rasmiy opponentlar:

Nuriyev Karim Katibovich
texnika fanlari doktori, professor

Mamadjanov Sultonali Islamaliyevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Qishloq xo'jaligi texnikasi va
texnologiyalarini sertifikatlash va sinash
markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

A. To'xtaqo'ziyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raising o'rinbosari t.f.d., professor

A.A.Ibragimov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi t.f.d., k.i.x.

A.To'xtaqo'ziyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi t.f.d, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan energiya-resurstejamkor, ish unumi va sifati yuqori bo'lgan mashinalarni ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Hozirda dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini ekish uchun har yili 1,8 mlrd. gektar maydonga ishlov berilishini hisobga olsak"¹, yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan mashinalar avvalo energiya-resurstejamkor, ish sifati va unumi yuqori bo'lishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan mavjud texnika vositalarini ilmiy asosda takomillashtirish va yangilarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda qishloq xo'jalik ekinlarining urug'larini ekish uchun yerlarni tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi namunalarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirishning ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishda yerlarni ekishga tayyorlashda foydalaniladigan kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llaniladigan tandem g'altakmola konstruksiyasini ishlab chiqish, uning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarida agrotexnik ko'rsatkichlari talablar darajasida bo'lishini ta'minlaydigan parametrlarini asoslash bo'yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo'jalik ekinlarini ilg'or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan dalalarni ekishga tayyorlashda kam energiya sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta'minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida, jumladan, "...qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash"² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, agroklastlar va fermer xo'jaliklarini ish sifati va unumi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash hisobiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga o'tish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida plankali, segmentli,

¹<http://www.nrcs.usda.gov>, <http://cropwatch.unl.edu/tillage/ridge>; <https://www.moluch.ru>, <https://www.zerno-ua.com>.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Farmoni.

trubali, tekis sirtli, tishli va halqa-tishli bir qator oʻrnatiladigan gʻaltakmolalardan keng foydalanib kelinmoqda. Lekin bu gʻaltakmolalar ularning ish koʻrsatkichlariga salbiy taʼsir koʻrsatadigan turli kamchiliklarga ega. Jumladan plankali va segmentli gʻaltakmolalar asosan tuproq yuza qatlamini yumshatish, kesaklarni maydalash, tekislash va qisman zichlashda yaxshi samara beradi, lekin talab darajasidagi tuproq zichligini taʼminlay olmaydi. Trubali va tekis sirtli gʻaltakmolalar tuproqni talab darajasida zichlanishini taʼminlasada, lekin tuproq yuzasidagi kesaklarni yaxshi maydalamasdan tuproqqa botirib ketadi. Tishli va halqa-tishli gʻaltakmolalar boshqa turdagi gʻaltakmolalarga nisbatan yaxshi ish koʻrsatkichlariga ega, yaʼni tuproqni yaxshi uvalanishini va zichlanishini taʼminlaydi. Ammo bu turdagi gʻaltakmolalarning asosiy kamchiligi ularning konstruksiyasi murakkabligi, massasining kattaligi hamda texnologik va texnik ishonchliligi yuqori emasligi hisoblanadi. Ushbu taʼkidlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida QXMITda mavjud gʻaltakmolalar ish koʻrsatkichlarini oshirish yoʻnalishlarida takomillashtirilib, shu asosda ikki qatorli(tandem) gʻaltakmola ishlab chiqildi. Shundan kelib chiqib, mazkur ish kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qoʻllaniladigan tandem gʻaltakmola parametrlarini asoslashga yoʻnaltirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 iyuldagi “Qishloq xoʻjaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xoʻjaligi texnikalari bilan taʼminlashni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4410-son qarori, 2019 yil 23 oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5853-son farmoni, 2020 yil 11 maydagi “Respublika hududlarini qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4709-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Alohida va kombinatsiyalashgan tuproqqa ishlov berish mashinalari tarkibiga kiradigan gʻaltakmolalarning tadqiqotlari bilan xorijda V.P.Marmalyukov, Yu.I.Kuznetsov, I.M.Panov, A.A.Vilde, N.K.Mazitov, F.M.Kanaryov, Yu.I. Mityashin, N.V.Chaychits, A.F.Juk va boshqalar shugʻullanishgan.

Ushbu yoʻnalishda Oʻzbekistonda S.Aminov, I.A.Inoyatov, I.T.Ergashev, Oʻ.P.Boboyev, I.Z.Nosirov, A.O.Xadji-Murodov, A.D.Nuriddinov, O.A.Rasulov, M.M.Ergashev, D.K.Muqimova, M.T.Mamarasulova va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan mashina va qurilmalar qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qoʻllanilib kelinmoqda. Ammo ularda yerlarga ekish oldidan ishlov beradigan kombinatsiyalashgan mashina tarkibida qoʻllaniladigan

tandem g'altakmolalarning ish jarayoni, turi va parametrlarini asoslash bo'yicha maqsadli ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada bajarilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot institutining ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Respublikamiz sharoitida kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llaniladigan tandem g'altakmola ishlab chiqish va uning kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifatini ta'minlovchi parametrlarini asoslash yo'li bilan yerlarni ekishga tayyorlashda ish sifati va unumini oshirish, yonilg'i va boshqa xarajatlar sarfini kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llaniladigan tandem g'altakmolaning maqbul turini asoslash;

kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llaniladigan tandem g'altakmolaning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonini ifodalovchi va parametrlarini aniqlash imkonini beradigan matematik modellar va analitik ifodalarni olish;

kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llaniladigan tandem g'altakmolaning ish ko'rsatkichlarini uning parametrlari va agregat harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish hamda ularni ifodalovchi regressiya tenglamalarini olish;

kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llaniladigan tandem g'altakmolaning parametrlarini maqbul qiymatlarini asoslash;

tavsiya etilayotgan tur va parametrlarga ega bo'lgan tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning agrotexnik ko'rsatkichlari o'rganish va iqtisodiy samaradorligi aniqlash.

Tadqiqotning obyekti tuproqning fizik-mexanik xossalari, tandem g'altakmolalar va ularning tuproq bilan ta'sirlashish jarayonlari.

Tadqiqotning predmeti tandem g'altakmolaning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonini ifodalovchi analitik bog'lanishlar va matematik modellar hamda mashinaning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini g'altakmolaning asosiy parametrlari va agregat harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika va nazariy mexanika fanlari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish hamda tenzometriya usullari va mavjud me'yoriy hujjatlarda (O'z DSt 3193:2017 "Qishloq xo'jalik texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli", O'z DSt 3412:2019 "Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar", Уз РД 63.03-98 «Испытания сельскохозяйственной техники. Методы расчета экономической эффективности испытываемой сельскохозяйственной техники») keltirilgan usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llash uchun tandem g'altakmolaning konstruksiyasi tuproqning talab darajasida uvalanishi va

zichlanishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan;

g'altakmolalarning parametrlarining o'zgarish chegaralari ularning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalovchi analitik bog'lanishlar asosida aniqlangan;

tandem g'altakmolaning bo'ylama - tik tekislikdagi tebranma harakati ish jarayonida unga ta'sir etuvchi tuproq reaksiya kuchlarini o'zgaruvchanligi va tuproqning fizik-mexanik xossalarini hisobga olgan holda tadqiq etilgan;

g'altakmolalarning diametri, planka va trubalari soni, unga beriladigan solishtirma tik bosim kuchi va agregat harakat tezligi ularning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini ifodalovchi regressiya tenglamalarini birgalikda yechish orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llash uchun dala yuzasining tuprog'ini talab darajasida maydalaydigan, tekislaydigan va zichlaydigan tandem g'altakmola ishlab chiqilgan va uning kam energiya sarflagan holda yuqori ish sifati va unumini ta'minlaydigan parametrlari asoslangan;

tavsiya etilayotgan tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinani fermer xo'jaliklarida yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llash mehnat sarfini 38,22 foizga va ekspluatatsion xarajatlarni 19,38 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning amaliyotda keng qo'llanib kelinayotgan samarali usullar va o'lchash vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, tavsiya etilayotgan tandem g'altakmolaning parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qonun va qoidalariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yerlarga ekish oldidan ishlov beradigan kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo'llaniladigan tandem g'altakmolaning sifat va energetik ko'rsatkichlarini uning parametrlariga bog'liqligini ifodalovchi analitik bog'lanishlar olinganligi va ulardan boshqa shunga o'xshash qurilma va ish organlarini ishlab chiqish va parametrlarini asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati yerlarni ishlab chiqilgan tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina bilan bir o'tishda ekishga tayyorlash hisobiga moddiy xarajatlar va mehnat sarfini kamaytirish hamda ish unumi va sifatini oshirishga erishilganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan tandem g'altakmolaning parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

asoslangan parametrlarga ega bo'lgan tandem g'altakmola bilan jihozlangan

kombinatsiyalashgan mashinaga Intellektual mulk markazining foydali modelga patenti olingan (“Tuproqqa ishlov beruvchi g‘altakmolali agregat”, FAR 02286 - 2023 y.). Natijada ish sifati yuqori tandem g‘altakmolaning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

asoslangan parametrlarga ega bo‘lgan tandem g‘altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina Toshkent viloyati Yangiyo‘l va Oqqo‘rg‘on tumanlaridagi fermer xo‘jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 12 sentyabrdagi № 07/34-06/1025-son ma‘lumotnomasi). Natijada yerlarga ekish oldidan ishlov berishda yonilg‘i sarfi 1,3-1,4 martaga kamayishi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar 34,7 foizga kamayishiga erishilgan;

ishlab chiqilgan tandem g‘altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning sanoat nusxasini ishlab chiqish va tayyorlash uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar va texnik topshiriq) “BMKB-Agromash” AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 12 sentyabrdagi № 07/34-06/1025-son ma‘lumotnomasi). Natijada asoslangan parametrlarga ega bo‘lgan tandem g‘altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazining 1 ta foydali modelga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi va dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning usullari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatiya natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Vazifaning qo‘yilishi va tadqiqot ishining maqsadi”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston sharoitida yerlarga ekish oldidan ishlov berishda qo‘llaniladigan texnologiyalar va texnika vositalari hamda mavjud kombinatsiyalashgan mashinalar bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar va kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo‘llaniladigan g‘altakmolalar bo‘yicha

O‘zbekistonda va xorijda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilgan va ular asosida tadqiqotning vazifalari shakllantirilgan.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo‘llaniladigan tandem g‘altakmolalarni turlari va parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiyaning **“Kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo‘llaniladigan g‘altakmolalarning ishlash sharoitlarini o‘rganish va turlarini tanlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish”** deb nomlangan ikkinchi bobida kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo‘llaniladigan tandem g‘altakmolalarning ishlash sharoitlari o‘rganilgan va maqbul turini tanlash bo‘yicha sinovlar o‘tkazilgan. Sinovlar to‘rt variantda o‘tkazildi:

I-variant. Plankali+trubali;

II-variant. Tishli plankali+trubali;

III-variant. Spiralsimon trubali+trubali;

IV-variant. Pichoqli+trubali.

Sinovlarni o‘tkazish uchun N-shaklidagi rama, unga orqama-ketin o‘rnatilgan plankali va trubali g‘altakmolalar hamda ramani mashina bilan bog‘laydigan G shaklidagi tortqilardan tashkil topgan tandem g‘altakmola ishlab chiqildi (1-rasm). G‘altakmolalar ramaga podshipniklar yordamida o‘rnatilgan, tortqilar ham rama, ham mashina bilan sharnirli bog‘langan va bu g‘altakmolalarni dala relefiga moslashib ishlashiga imkon beradi.


Ish jarayonida birinchi qatorga o‘rnatilgan plankali g‘altakmola tuproqning ustki qatlamidagi kesaklarni maydalaydi va qisman zichlaydi, ikkinchi qatorga o‘rnatilgan trubali g‘altakmola kesaklarni qo‘shimcha maydalaydi va tuproqni talab darajasida zichlaydi.

Sinovlar maxsus ishlab chiqilgan qurilmadan foydalanib agregatning 6 va 8 km/h tezliklarida o‘tkazildi.

Sinovlarda olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Ular asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- tuproqning uvalanish sifati bo‘yicha plankali+trubali hamda tishli plankali+trubali tandem g‘altakmolalar yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Spiralsimon trubali+trubali va pichoqli+trubali tandem g‘altakmolalarda kesaklarni maydalash sifati bo‘yicha ularga nisbatan past ko‘rsatkichlar olindi;

- tuproqning zichligi spiralsimon trubali+trubali tandem g‘altakmolada yuqori, pichoqli+trubali tandem g‘altakmolada past bo‘ldi.



1 – rama; 2 – plankali g‘altakmola;
3 – trubali g‘altakmola; 4 – tortqi
1-rasm. Tandem g‘altakmolaning sxemasi

1-jadval. Tandem usulida joylashtirilgan g'altakmolalar taqqoslov sinovlarining natijalari


Tandem turi	Quyidagi o'lchamdagi (mm) fraksiyalar miqdori, %			Tuproqning zichligi, g/cm ³	G'altakmolalarning tortishga solishtirma qarshiligi, kN/m
	< 25	50-25	> 50		
V=6 km/h					
Planka+trubali	0	15,87	84,13	1,20	2,89
Tishli planka+trubali	0	15,83	84,17	1,24	2,99
Spiralsimon truba+trubali	2,95	17,87	79,18	1,26	2,80
Pichoqli+trubali	6,21	13,57	80,22	1,10	3,54
V=8 km/h					
Planka+trubali	0	14,29	85,71	1,15	2,98
Tishli planka+trubali	0	15,04	84,96	1,20	3,00
Spiralsimon truba+trubali	1,42	17,39	81,29	1,22	2,95
Pichoqli+trubali	6,67	11,76	81,57	0,96	3,67

- sinovlarda pichoqli+trubali tandem g'altakmola tortishga eng ko'p, spiralsimon trubali+trubali tandem g'altakmola esa eng kam qarshilik ko'rsatgan. Buni plankali+trubali, tishli plankali+trubali va pichoqli+trubali tandem g'altakmolalar tuproqqa chuqurroq, spiralsimon trubali+trubali tandem g'altakmola esa sayozroq botgani bilan izohlash mumkin.

Agregat harakat tezligini 6 km/h dan 8 km/h ga ortishi tuproqning uvalanish sifatini bir muncha yaxshilanishi va zichligini kamayishi hamda g'altakmolalarning tortishga qarshiligini ortishiga olib kelgan.

Dissertatsiyaning "**Tandem g'altakmolaning parametrlarini asoslash**" deb nomlangan uchinchi bobida plankali va trubali g'altakmolalarning parametrlarini hamda tandem g'altakmolaning ravon harakatini tadqiq etishga doir o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Quyidagilar tandem g'altakmolaning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi asosiy parametrlari hisoblanadi (2-rasm): D_p , D_t - mos ravishda plankali va trubali g'altakmolalarning diametri, m; n_p, n_t - mos ravishda, plankali va trubali g'altakmolalarga o'rnatilgan planka va trubalar soni, dona; α - planka va trubalarni g'altakmolaning aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi, °; b_p - plankaning qalinligi, m; h_p - plankaning balandligi, m; h_a - plankalarning g'altakmola asoslariga kirib turadigan qismlarining balandligi, m; d_t - trubaning diametri, m; b_a - g'altakmola asoslarining




2-rasm. Tandem g'altakmolaning parametrlari

qalinligi, m; l_1, l_2 - mos ravishda, plankali va trubali g'altakmolalarning aylanish markazidan "O" sharnirgacha bo'lgan bo'ylama masofalar, m; $L = l_1 + l_2$ - g'altakmolalar orasidagi masofa, m; Q - g'altakmolaga beriladigan tik yuklanish, N/m; V - harakat tezligi, km/h.

Plankali g'altakmolalarning parametrlari ilgari o'tkazilgan tadqiqotlardan foydalanilgan holda aniqlandi. Ularga ko'ra plankali g'altakmolaning diametri kamida 35 cm, unga o'rnatiladigan plankalar soni kamida 10 dona, plankalarni aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi 15° hamda plankali g'altakmolaning har bir metr qamrash kengligiga beriladigan tik yuklanish 1,04-1,06 kN/m oralig'ida bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Trubali g'altakmolaning trubalari orasidagi masofani 3-rasmda keltirilgan sxemadan foydalangan holda tuproqning g'altakmolaning trubalari tomondan ishlov beriladigan yuqori qatlamidan pastki qatlamga to'liq zichlanishi shartidan aniqlandi.



3-rasm. Trubali g'altakmolaning trubalari orasidagi masofani aniqlashga doir sxema

Bunda 1 tuba tuproqqa to'liq, ya'ni belgilangan chuqurlikka botgan, 2 tuba esa tuproqqa qisman botgan deb qaraldi. Bunda trubalar orasidagi masofani aniqlash uchun

quyidagi ifoda olindi:


$$S \leq \sqrt{(h_1 - h_2)^2 + \left[(h_1 - h_2 + 2r) \operatorname{tg} \left(45^\circ + \frac{\varphi_1}{2} \right) \right]^2}, \quad (4)$$

bunda h_1, h_2 - mos ravishda 1 va 2 trubalarning tuproqqa botish chuqurliklari, m; r - trubali g'altakmolaning trubasining radiusi, m.

(4) ifodaga $h_1 = h_b = 4,5$ cm (bunda h_b - trubali g'altakmolaning tuproqqa belgilangan botish chuqurligi, cm), $h_2 = 2,5$ cm, $r = 1,75$ cm va $\varphi_1 = 30^\circ$ qiymatlarni qo'yib, trubali g'altakmola trubalari orasidagi masofa ko'pi bilan 8,9 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Trubali g'altakmolaning diametri

4-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib, quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi:



4-rasm. Trubali g'altakmolaning diametrini aniqlashga doir sxema

$$D_t \leq 2 \left[\frac{\sqrt{(h_1 - h_2)^2 + \left[(h_1 - h_2 + 2r) \operatorname{tg} \left(45^\circ + \frac{\varphi_1}{2} \right) \right]^2}}{2 \sqrt{1 - \cos 2 \arcsin \frac{h_1 - h_2}{\sqrt{(h_1 - h_2)^2 + \left[(h_1 - h_2 + 2r) \operatorname{tg} \left(45^\circ + \frac{\varphi_1}{2} \right) \right]^2}}} \right] + r \quad (5)$$


Bu ifodaga $r=1,75$ cm, $h_1=4,5$ cm va $h_2=2,5$ cm qiymatlarni qo'yib, trubali g'altakmolaning diametri kamida 34,7 cm bo'lishi lozimligini aniqlandi.

Trubali g'altakmolaga o'rnatiladigan trubalar sonini quyidagi ifodadan foydalanib aniqlandi:

$$n_t = \frac{180^\circ}{\arcsin \frac{h_1 - h_2}{\sqrt{(h_1 - h_2)^2 + \left[(h_1 - h_2 + 2r) \operatorname{tg} \left(45^\circ + \frac{\varphi_1}{2} \right) \right]^2}}}. \quad (6)$$

Bu ifodaga h_1 , h_2 va n_t ni yuqorida keltirilgan qiymatlarini qo'yib, trubali g'altakmolaga o'rnatiladigan trubalar soni kamida 10 ta bo'lishi lozimligini aniqlandi.

Trubali g'altakmolaga beriladigan tik yuklanishni tuproqni talab darajasida zichlanishini ta'minlashi shartidan aniqlandi. Buning uchun g'altakmola ma'lum bir chuqurlikka botib ishlashi lozim. Ushbu ta'kidlanganlarni hisobga olgan holda trubali g'altakmolaga beriladigan tik yuklanishni 5-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib aniqlandi:




5- rasm. Trubali g'altakmolaga beriladigan tik yuklanishni aniqlashga doir sxema


$$Q_T = 2q_0 l_t r \left[(h_1 + h_2 - 2r) \sin \left(\frac{\pi}{4} + \varphi_1 \right) + r \left(\frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2} + \frac{1}{2} \cos \varphi_1 \right) \right]. \quad (7)$$

Bu ifodaga $q_0 = 1,1 \cdot 10^6$ N/m³, $K_v = 0,01$ s²/m², $V_u = 1,75 - 2,25$ m/s, $l_t = 1$ m, $r = 0,0175$ m, $h_1 = 0,045$ m, $h_2 = 0,0175$ m, $\varphi_1 = 30^\circ$ qiymatlarni qo'yib, trubali g'altakmola tuproqni talab darajasida zichlashi uchun uning har bir metr qamrash kengligiga 1700 N/m tik yuklanish berilishi lozimligini aniqlandi.

G'altakmolalarning bo'ylama va tik tekislikdagi tebranma harakatini tadqiq etish. Agregatning harakati davomida dala yuzasida mavjud bo'lgan notekisliklar va tuproq fizik-mexanik xossalarning o'zgaruvchanligi sababli g'altakmolalarga ta'sir etuvchi kuchlar doimiy ravishda o'zgarib turadi (6- va 7-rasmlar). Bu g'altakmolalarning bo'ylama-tik tekislikdagi muvozanati buzilishi va "O" sharnir atrofida tebranma harakat qilishiga olib keladi. O'z navbatida bu tuproqning butun paykal bo'ylab bir tekis uvalanishi va zichlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirni kamaytirish va bartaraf etish maqsadida g'altakmolalarning "O" sharnir atrofidagi tebranishlari tadqiq etildi va g'altakmolalarning tebranishlarining amplitudasini aniqlash imkonini beradigan ushbu ifoda olindi:



6-расм. Иш жараёнида ғалтакмолаларга таъсир этувчи кучлар схемаси



7-расм. Ғалтакмолаларнинг “О” шарнир атрофидаги бурчак тебранишларини тадқиқ этишга доир схема

$$A_z = \frac{1}{J_u} \sum_{n=1}^{n_i} (\Delta R_{zp}^n l_1 - \Delta R_{zt}^n l_2) \div \left\{ \left[\frac{C_T B (l_1 + l_2)^2 + N_{tx}^{o'r} l_2 - N_{px}^{o'r} l_1}{J_u} + (n\omega)^2 \right]^2 + \left[\frac{b_T B (l_1^2 + l_2^2)}{J_u} \right]^2 (n\omega)^2 \right\}^{\frac{1}{2}}, \quad (8)$$


bunda J_u – g‘altakmolalarning “O” sharnirga nisbatan umumiy (tortqilar bilan birga) inertsiya momenti; C_T – tuproqning plankali va trubali g‘altakmolalarning bir birlik qamrash kengligiga keltirilgan bikirlik koeffitsiyenti; b_T – tuproqning plankali va trubali g‘altakmolalarning bir birlik qamrash kengligiga keltirilgan qarshilik koeffitsiyenti; $N_{tx}^{o'r}$, $N_{px}^{o'r}$ – mos ravishda N_{tx} va N_{px} kuchlarning o‘rtacha qiymatlari; ΔR_{zp}^n , ΔR_{zt}^n – mos ravishda o‘zgaruvchan $\Delta R_{zp}(t)$ va $\Delta R_{zt}(t)$ kuchlar garmonikasining amplitudasi; $n=1, 2, \dots, n_i$ – garmonikalar nomeri; ω – o‘zgaruvchi kuchlarning aylanma chastotasi, c^{-1} ; B – g‘altakmolalarning qamrash kengligi.

G‘altakmolalarning yuqori ish sifatini ta’minlash uchun A_z minimal qiymatga ega bo‘lishi kerak. (8) ifodaning tahlilidan amalda bu asosan l_1 va l_2 masofalar hamda plankali va trubali g‘altakmolalarga o‘rnatiladigan plankalar va trubalar sonini to‘g‘ri tanlash hisobiga ta’minlanadi. Bu ko‘rsatilgan omillarni o‘zgartirish

hisobiga $\sum_{n=1}^{n_i} (\Delta R_{zp}^n l_1 - \Delta R_{zt}^n l_2) = 0$ munosabat ta’minlansa, g‘altakmolalar majburiy

tebranishlarining amplitudasi nolga teng yoki unga juda yaqin bo‘lib, tuproqning uvalanish sifati va zichlanish darajasi bo‘yicha yuqori natijalarga erishiladi.


Dissertatsiyaning “**Tandem g‘altakmolaning parametrlarini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida ishlab chiqilgan tandem g‘altakmola g‘altakmolalarining diametrlari, g‘altakmolalarga o‘rnatiladigan plankalar va trubalar soni, g‘altakmolalar plankalar va trubalarini o‘rnatish burchaklari, g‘altakmolalarga beriladigan solishtirma tik bosim kuchi, g‘altakmolalarning aylanish o‘qlari orasidagi bo‘ylama masofani uning sifat va energiya ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan bir va ko‘p omilli tajribalarning natijalari



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo'lganda

9-rasm. Tandem g'altakmola planka va trubalar soni (n) ni tuproqning uvalanish darajasi ($F_{<25>}$), zichligi (ρ) va g'altakmolalarning tortishga solishtirma qarshiligi (R_s) ga ta'siri

G'altakmolalar plankani va trubalarini o'rnatilish burchaklarini ularning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalarning natijalari 10- rasmda keltirilgan. Ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikkala harakat tezligida ham planka va trubalarni g'altakmolaning aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagini 0° dan 15° gacha ortishi tuproqning uvalanish sifati sezilarli darajada yaxshilanishiga, ya'ni undagi yirik kesaklar miqdorini kamayishiga va mayda kesaklar miqdorini esa ortishiga olib kelgan.



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo'lganda


10-rasm. Planka va trubalarni g'altakmolalarning aylanish o'qlariga nisbatan o'rnatilish burchaklari (α) ni tuproqning uvalanish darajasi ($F_{<25>}$), zichligi (ρ) va g'altakmolalarning tortishga solishtirma qarshiligi (R_s) ga ta'siri

Tuproqning zichligi bu burchak 0° dan 15° gacha ortganda ortgan, 15° dan katta bo'lganida esa har ikkala tezlikda ham kamaygan.

Planka va trubalarni g'altakmolalarning aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi 0° dan 10° gacha ortishi bilan ularning tortishga solishtirma qarshiligi kamaygan, 10° dan 20° gacha ortganda esa ortgan. Bunga planka va trubalarni g'altakmola aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi 10° dan kichik va katta bo'lganda tuproqning yirik o'lchamli fraksiyalari ular orasiga kirib qolishi natijasida g'altakmolalarning tortishga solishtirma qarshiligi yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan.

11-rasmda keltirilgan grafik bog'lanishlarning tahlilidan ko'rinib turibdiki, g'altakmolalarga beriladigan solishtirma tik bosim kuchi ortishi bilan tuproqning uvalanish darajasi ortgan. Bunga sabab shuki, tik bosim kuchi ortishi bilan

g'altakmolalar tuproqqa yaxshi botadi va uni ezish darajasi ortadi. Buning natijasida tuproq yaxshi uvalanadi.




1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo'lganda

11-rasm. Solishtirma tik bosim kuchi (Q_c) ni tuproqning uvalanish darajasi ($F_{₂₅}$), zichligi (ρ) va g'altakmolalarning tortishga solishtirma qarshiligi (R_c) ga ta'siri

Ta'kidlangan sabab tufayli g'altakmolalarga beriladigan solishtirma tik yuklanish 2,5 kN/m dan 4,0 kN/m gacha ortishi tuproqning zichligini va tortishga solishtirma qarshilik ortishiga olib kelgan.

12- rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, har ikkala tezlikda ham g'altakmolalar aylanish o'qlari orasidagi masofani 45 cm dan 65 cm gacha ortishi bilan tuproqning uvalanish darajasi va zichligi ortgan. Buning sababi, g'altakmolalar aylanish o'qlari orasidagi masofa ortishi bilan ularning orasiga yirik kesaklarni tiqilishi va tuproq uyumining kamayishi hisoblanadi.



1 va 2 mos ravishda agregat tezligi 6 va 8 km/h bo'lganda

12-rasm. G'altakmolalarning aylanish o'qlari orasidagi bo'ylama masofa (L) ni tuproqning uvalanish darajasi ($F_{₂₅}$), zichligi (ρ) va g'altakmolalarning tortishga solishtirma qarshiligi (R_c) ga ta'siri

Tortishga solishtirma qarshilik g'altakmolalar aylanish o'qlari orasidagi bo'ylama masofa ortishi bilan yuqorida ko'rsatilgan sabablar kamaygan.

Tandem g'altakmolaning nazariy va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlash uchun Xartli-4 rejasi bo'yicha ko'p omilli eksperimentlar o'tkazildi.

Bunda g'altakmolalar diametri (X_1), g'altakmolalarga o'rnatiladigan plankalar va trubalar soni (X_2), g'altakmolalarga beriladigan solishtirma tik bosim kuchi (X_3) va agregat harakat tezligi (X_4) uning sifat va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sir

etuvchi omillar sifatida tanlab olindi.

Ko'p omilli eksperimentlarni o'tkazishda baholash mezonlari sifatida tuproqning uvalanish darajasi, ya'ni o'lchami 25 mm dan kichik bo'lgan tuproq fraktsiyalar miqdori, tuproqning zichligi hamda g'altakmolaning tortishga solishtirma qarshiligi olindi.

Tajribalarda olingan ma'lumotlarga ishlov berishda dispersiyaning bir xilligi Koxren mezon, regressiya koeffitsiyentlarini qiymati Styudent mezon, regression modellarning adekvatligi Fisher mezon bo'yicha baholandi.

Tajriba natijalariga ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- tuproqning uvalanish darajasi bo'yicha (Y_1 , %):

$$Y_1 = 83,838 + 0,639X_1 + 1,152X_2 + 2,018X_3 + 2,503X_4 - 2,270X_1^2 + 0,403X_1X_2 - 0,310X_1X_4 - 1,125X_2^2 - 0,723X_2X_3 + 0,828X_2X_4 + 0,724X_3X_4 - 1,287X_4^2; \quad (9)$$

- tuproqning zichligi bo'yicha (Y_2 , g/cm³):

$$Y_2 = 1,112 - 0,041X_1 + 0,045X_2 + 0,075X_3 - 0,045X_4 + 0,028X_1^2 - 0,018X_1X_2 - 0,020X_1X_3 + 0,018X_1X_4 - 0,017X_2^2 + 0,035X_2X_3 - 0,032X_2X_4 - 0,017X_3^2 - 0,034X_3X_4 + 0,023X_4^2; \quad (10)$$

- tortishga solishtirma qarshiligi bo'yicha (Y_3 , kN/m):

$$Y_3 = 0,968 - 40,733X_1 + 16,097X_2 + 34,250X_3 + 16,637X_4 + 8,216X_1^2 - 3,058X_1X_2 - 2,183X_1X_3 + 3,058X_1X_4 - 4,034X_2^2 - 2,333X_2X_4 + 6,466X_3^2 + 7,232X_4^2. \quad (11)$$

Ushbu olingan regressiya tenglamalari tahlilidan ko'rinib turibdiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Olingan (9)-(11) regressiya tenglamalari " Y_1 " mezon, ya'ni <25 % dan kichik tuproqning uvalanish darajasi 80 % dan yuqori, " Y_2 " mezon, ya'ni tuproqning zichligi 1,1-1,2 g/cm³ oralig'ida va " Y_3 " mezon, ya'ni tandem g'altakmolalarning tortishga solishtirma qarshiligi minimal qiymatga ega bo'lishi shartlaridan kelib, chiqib, MS Excel va PLANEXP dasturlari bo'yicha birgalikda yechildi. Bunda olingan natijalar bo'yicha 6,0-8,0 km/h harakat tezliklarda hamda planka va trubalar soni 10 dona bo'lganda, g'altakmolalar diametri 36,34-39,31 cm ularga beriladigan tik bosim kuchi 2,86-3,18 kN/m oralig'ida bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "**Tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaning sinovlarini o'tkazish va iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash**" deb nomlangan beshinchi bobida tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina tajriba nusxasining texnik tavsifi, dala sinovlari natijalari va uning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Sinovlarda tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina belgilangan texnologik jarayonni ishonchli va sifatli bajardi, uning ish ko'rsatkichlari agrotexnika talablariga to'liq mos bo'ldi.

O'tkazilgan hisoblar shuni ko'rsatdiki, taklif etilayotgan tur va parametrlarga ega bo'lgan tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina yerlarga ekish oldidan ishlov berishda qo'llanilganda mehnat sarfi 38,22 foizga va ekspluatatsion xarajatlar esa 19,38 foizga kamayadi. Bunda yillik iqtisodiy samara tandem g'altakmola bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaga 57269719,2 UZS ni tashkil etdi.

XULOSA

“Kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida qo‘llaniladigan tandem g‘altakmolaning turi va parametrlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida tandem g‘altakmolalarni qo‘llash dalalarni talab darajasida tekislanishi, yetarli miqdorda zichlanishi va dala yuzasida mayin qatlam hosil bo‘lishini ta‘minlaydi.

2. Kombinatsiyalashgan mashinalar tarkibida planka+trubali tandem g‘altakmolalarni qo‘llash belgilangan texnologik jarayonlarni talab darajasida bajarilishini va energiyatejamkorlikni ta‘minlaydi. Bu esa urug‘larni sifatli ekilishi va bir tekis unib chiqishiga, o‘simliklarni yaxshi rivojlanishi va hosildorlik ortishiga olib keladi.

3. Planka+trubali tandem g‘altakmolani tuproqqa belgilangan chuqurlikka botib ishlashi va uni talab darajasida zichlashi uchun uning har bir metr qamrash kengligiga 2,72 kN/m tik yuklanish berilishi lozim.

4. Tuproqning uvalanish sifati va zichligi agrotexnika talablarga mos kelishi va g‘altakmolalarning tortishga qarshiligi minimal bo‘lishini ta‘minlash uchun g‘altakmolalar plankalari va trubalarini ularning aylanish o‘qiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 10° - 15° oralig‘ida bo‘lishi lozim.

5. G‘altakmolalar 6,0-8,0 km/h ish tezliklarida dalalar yuzasiga kam energiya sarflangan holda talab darajasida sifatli ishlov berilishini ta‘minlashi uchun ularning diametrlari 36,34-39,31, ularga o‘rnatiladigan planka va trubalar soni 10 dona va unga beriladigan tik yuklanish 2,86 – 3,18 kN/m oralig‘larda bo‘lishi lozim. Bunda tuproqning uvalanish darajasi 80,24-84,21 % ni, 0-10 cm qatlamlardagi tuproqning zichligi 1,11-1,14 g/cm³ ni va tortishga solishtirma qarshiligi 0,89-0,99 kN/m ni tashkil etadi.

6. Tandem g‘altakmolalar bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan agregat texnologik jarayonni ishonchli bajargan va sinov natijalari bo‘yicha uning tortishga qarshiligi 17,4-17,8 kN oralig‘ida bo‘lgan, ish unumi 1,43-1,76 ha/h, yonilg‘i sarfi esa 10,7-11,3 kg/ha ni tashkil etgan.

7. Tandem g‘altakmolalar bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashina qo‘llanilganda mehnat sarfi 38,22 foizga va ekspluatatsion xarajatlar 19,38 foizga kamayadi. Bunda yillik iqtisodiy samara tandem g‘altakmolalar bilan jihozlangan kombinatsiyalashgan mashinaga 57269719,2 so‘mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 05/13.05.2020. Т.112.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

ЭШМАТОВА ГАВХАР КУТПИТДИНОВНА

**ОБОСНОВАНИЕ ТИПА И ПАРАМЕТРОВ ПРИМЕНЯЕМОГО В
СОСТАВЕ КОМБИНИРОВАННЫХ МАШИН ТАНДЕМНОГО КАТКА**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за В2021.1.PhD/Т2132.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.qxmiti.uz и Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Эргашев Маъруфжон Мухаммаджонович
PhD по техническим наукам, с.н.с.

Официальные оппоненты:

Нуриев Карим Катибович
доктор технических наук, профессор

Мамаджанов Султонали Исламалиевич
кандидат технических наук, доцент

Yetakchi tashkilot:

**Центр сертификации и испытаний
сельскохозяйственной техники и
технологий**

Защита диссертации состоится “___” _____ 2024 г. в ___ часов на заседании Научного совета DSc.05/13.05.2020.T.112.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства. (Адрес: 110801, Ташкентская область, Янгиюльский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99870) 601-07-04, факс: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (регистрационный номер ____). (Адрес: 110801, Ташкентская область, Янгиюльский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99870) 601-07-04, факс: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz.)

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2024 года.
(Протокол рассылки № _____ от “___” _____ 2024 года).

А.Тухтакузиев

Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней д.т.н., профессор

А.А.Ибрагимов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней д.т.н., с.н.с.

А.Тухтакузиев

Председатель научного семинара при научном совете, присуждающего научные степени д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и значимость темы диссертации. На сегодняшний день ведущее место в мире занимает разработка и применение энергоресурсосберегающих высокопроизводительных сельскохозяйственных машин для подготовки почвы к посеву. “Если учесть, что на сегодняшний день по всему миру площадь полей для предпосевной обработки составляет 1,8 млрд. га”¹, то применение энергоресурсосберегающих высокопроизводительных и высококачественных сельскохозяйственных машин считается важной задачей. В связи с этим, имеет важное значение усовершенствование на научной основе имеющихся и производство новых технических средств, применяемых для предпосевной обработки почвы.

В мире проводятся целевые научно-исследовательские работы, направленные на создание ресурсосберегающих технологий и новых образцов технических средств для их осуществления, на разработку научно-технических основ усовершенствования имеющихся технологий для подготовки почвы к севу семян сельскохозяйственных культур. В данном направлении одним из актуальных задач считается разработка конструкции тандемных катков, применяемых в составе комбинированных машин для подготовки почвы к севу, проведение целевых научно-исследовательских работ по обоснованию их параметров, обеспечивающих требуемый уровень агротехнических показателей в процессе их взаимодействия с почвой.

